

TDIU HUZURIDAGI
PEDAGOG KADR LARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI

O'QUV USLUBIY MAJMUA



TOSHKENT-2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

“MOLIYA VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR”

YO'NALISHI

**“DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISH”
MODULI BO'YICHA**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent-2022

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: X.X.Imomov - TDIU, "Moliya" kafedrasi dosenti, i.f.n.

Taqrizchi: Qurbanov X.A. - TDIU "Davlat moliyasi" kafedrasi dosenti, i.f.n.

Modulning ishchi dasturi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashining 2022 yil 25 yanvardagi 6-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	13
III. MA'RUDA MATNI.....	26
IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR, TOPSHIRIQLAR VA ULARNI O'TKAZISH BO'YICHA TAVSIYALAR..	30
V. BITIRUV ISHLARI UCHUN MAVZULAR	64
VI. KEYSLAR BANKI.....	66
VII. GLOSSARIY.....	69
VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI	73

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdan tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizasiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4022-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi “2019 – 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovasion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiyligi malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovasion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn,

«blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Davlat qarzlarini boshqarish” modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi tinglovchilarida davlat qarzlarini boshqarish va uning konseptual asoslarni, davlat qarzlarini boshqarishga oid xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlarini, zamonaviy sharoitlarda davlat qarzlarini boshqarishga oid islohotlarning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

“Davlat qarzlarini boshqarish” modulining vazifalari:

- davlat qarzlarini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlarning davlat qarzlarini boshqarishga oid ilmiy qarashlari haqidagi ilmiy bilimlar bazasini aniqlashtirish;
- zamonaviy sharoilarda fiskal siyosat va uning konseptual asoslari bo'yicha tinglovchilarnining bilimi, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;
- zamonaviy sharoitlarda jahon mamlakatlari davlat qarzlarini boshqarishdagi mavjud dolzarb muammolar, davlat ichki qarzlari, davlat tashqi qarzlari va davlat qarzlarini boshqarish tizimiga oid tinglovchilarning layoqatlarini rivojlantirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Davlat qarzlarini boshqarish” kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- davlat qarzlarini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, u haqidagi klassik va zamonaviy ilmiy qarashlarniing konseptual asoslari;
- zamonaviy sharoitlarda O'zbekiston Respublikasi davlat qarzlarini boshqarish tizimidagi islohotlarning konseptual asoslari, davlatning ichki va tashqi qarzlarini boshqarish tizimidagi islohotlarning iqtisodiy o'sishni ta'minlashga samarali ta'siri, amaldagi iqtisodiy islohotlardagi roli;
- inqirozning navbatdagi to'lqini sharoitida davlat qarzlarini boshqarish tizimidagi dolzarb muamolar va islohotlarning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha bilimlariga ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- davlat qarzlarini boshqarishning o‘rni va ahamiyatini iqtisodiy jihatdan baholay olish;
- davlat byudjeti daromad va xarajatlari parametrlarining gorizontal va vertikal tahlil qilish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan davlat qarzlarini boshqarishning strategik maqsadlari to‘g‘risida xulosalar tizimini shakllantirish;
- davlat qarzlarini boshqarishning samaradorligini oshirish natijasida iqtisodiyotdagи holatni va davlat byudjet ijrosi (profesit/defisit)ni to‘g‘ri baholash;
- rivojlangan mamlakatlar davlat qarzlarini boshqarish tizimidagi dolzarb muammolar va ularni hal qilish yo‘llari bo‘yicha islohotlarning ustuvor yo‘nalishlariga oid xulosalarni shakllantirish **ko‘nikmalarini egallashi zarur.**

Tinglovchi:

- davlat qarzlarini boshqarishning funksional elementlari asosida kompleks tahlilini amalga oshirish;
- zamonaviy sharoitlarda davlat qarzlarini boshqarish va uni iqtisodiy o‘sishga samarali ta’sirini miqdoriy jihatdan tahlil qilish va xulosalarni shakllantirish;
- rivojlangan mamlakatlar davlat qarzlarini boshqarish tizimida kuzatilayotgan dolzarb muammolar, ularga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash;
- mamlakatimizda davlat qarzlarini boshqarish tizimidagi yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan islohotlar strategiyasini tahlil qilish va o‘ziga xos ravishdagi taraqqiyot senariysini ishlab chiqishga oid **malakalarni egallashi lozim;**

Tinglovchi:

- moliya tizimi davlat qarzlarini boshqarish siyosatning konseptual asoslari bo‘yicha ilmiy va amaliy ma’lumotlar bankini shakllantirish va ularni tizimlashtirish;
- moliya tizimi, davlat qarzlarini boshqarishga oid zamonaviy ilmiy qarashlar, O‘zbekistonda davlat qarzlarini boshqarishdagi islohotlarning ustuvor yo‘nalishlariga oid yangi ilmiy va amaliy ma’lumotlarni tizimlashtirish;
- davlat qarzlarini boshqarishga oid zamonaviy bilimlarga asoslangan holda mutaxassislik guruhlarida ma’ruza va amaliy mashg‘ulot olib borish **kompetensiyalarni egallashi lozim.**

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Davlat qarzlarini boshqarish” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

O‘quv jarayonida ta’limning interfaol o‘qitish metod, shakl va vositalari, pedagogik va axborot-kommunkasiya texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutilgan:

- ma'ruza mashg'ulotlarida "Aqliy hujum", "Kutish yo'ldoshi", "Konseptual jadval", "O'ylang-juftlikda ishlang-fikr almashing" kabi interfaol o'qitish metod, shakl va vositalaridan;

- amaliy mashg'ulotlarda bahs-munozara, tushunchalar tahlili, aqliy hujum, keys, guruhlarda ishslash, SWOT- tahlil jadval, T-jadval kabi interfaol o'qitish metod, shakl va vositalarni qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

"Davlat qarzlarini boshqarish" moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi "Davlat moliyasi", "Korporativ moliya", "Zamonaviy moliya tizimi" o'quv modullari bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning olyi ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar moliya tizimi, davlat moliyasi, moliyaviy siyosatning konseptual asoslari bo'yicha ilmiy va amaliy ma'lumotlar bankini shakllantirish va ularni tizimlashtirish bo'yicha kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchingin o'quv yuklamasi, soat			
		Auditoriya o'quv yuklamasi			
		jami	jumladan		
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1	Davlat qarzlarining mazmun-mohiyati va yuzaga kelish sabablari	4	2	2	
2	Byudjet taqchilligi uni moliyalashtirish manbalari	6	2	2	2
3	O'zbekistonda davlat ichki va tashqi qarzlarining vujudga kelish omillari, qoplash manbalari va ularni boshqarish	6		4	2
4	Davlat byudjeti taqchilligi va uni qarzli moliyalashtirish siyosati	2		2	
5	Davlat moliyasi tizimida davlat krediti va davlat qarzlarini shakllantirish va boshqarish.	2		2	
	Jami:	20	4	12	4

NAZARIY MASHG‘ULOTLARI MAZMUNI

1-mavzu. Davlat qarzlarini boshqarishning mazmuni va iqtisodiy ahamiyati.

Davlat qarzlarini boshqarishning mazmuni va iqtisodiy ahamiyati. Davlat qarzlarini boshqarish fanining vazifalari va boshqa maxsus fanlar bilan bog‘liqligi. Davlat qarzi nazariyasi, Klassiklarning qarz to‘g‘risida nazariyalari, Keyns va “Yangiortodoksiya”, Rikardocha ekvivalentlik, “Sog‘lom moliya” va “funksional moliya”. Iqtisodiyot transformasiyalashuvi sharoitida davlat qarzlarining mohiyati, xususiyatlari. O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyasini sog‘lomlashtirish borasida davlat qarzlarini boshqarish strategiyasining maqsadlari va taktik vazifalari.

Makroiqtisodiy barqarorlik va uni ta’minlashda davlat qarzlarining vazifalari. Davlat qarzlarini boshqarishda davlatning iqtisodiy vazifasi.

2-mavzu: Byudjet taqchilligi uni moliyalashtirish mabalari.

Byudjet taqchilligini yuzaga kelish sabablari. Byudjet taqchilligi va inqiroz, ularning bog‘liqligi. Byudjet taqchilligini pulli moliyalashtirish. Byudjet taqchilligini moliyalashtirishning boshqa manbalari. Davlat moliyasining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. Davlat moliyasining bo‘g‘inlari: davlat Byudjeti, Byudjetdan tashqli fondlar, davlat korxonalar moliysi, davlat krediti. Moliyaning taqsimlash funksiyasi orqali hosil qilinadigan pul fondlari va unda markazlashtirilgan pul fondlarining hissasi. Davlatning moliyaviy resurslar fondi va uni shakllanish manbalari. Davlat pul fondlarini shakllantirish usullari.

. AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot:

O‘zbekistonda davlat ichki va tashqi qarzlarining vujudga kelish omillari, qoplash manbalari va ularni boshqarish

Davlat ichki qarzlarining mohiyati, tarkibi va omillari. Davlat ichki qarzlarini boshqarish yuzasidan faoliyatning asosiy yo‘nalishlari. Davlatning moliya siyosatida ichki qarzlarni boshqarish tadbirlarining ahamiyati va vazifalari. Davlat qarzlarini kamaytirish muammolarini va yechimlari. Davlat tashqi qarzlarining mohiyati, omillari va shakllari. Davlat tashqi qarzlarini moliyalashtirish manbalari va ularni mukammallashtirish. Davlat tashqi qarzlarini samarali boshqarish. Davlat tashqi qarzlarini qoplash manbalariga umumiyl tavsif. Davlat Byudjeti taqchilligini qoplashning inflayasion va noinflyasion manbalarining tarkibi. Davlat Byudjeti daromadlarini prognoz qilishning xususiyatlari.

2-amaliy mashg‘ulot:

Davlat byudjeti taqchilligi va uni qarzli moliyalashtirish siyosati.

Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish masalalari. Davlat byudjet taqchilligini boshqarish masalalari. Byudjet jarayoni va uning bosqchilari. Davlat ichki va tashqi qarzlarini boshqarish tizimida byudjet taqchilligini boshqarishning ahamiyati va vazifalari. Davlat byudjeti taqchilligining shakllari va turlari. Davlat byudjeti taqchilligini samarali boshqarish davlat tadbirdari. Davlat xarajatlarini qarz olish yo‘li bilan moliyalashtirish sabablari. Qayta moliyalashtirish, Qarz va davlat moliyasi barqarorligi, Bozor va nobozor qarzlar, Ichki va tashqi qarz, yalpi va sof qarz.

3-amaliy mashg‘ulot:

Davlat moliyasi tizimida davlat krediti va davlat qarzlarini shakllantirish va boshqarish.

Davlat kreditining mazmuni va ob’yektiv zarurligi. Davlat kreditining turlari va tasniflanishi. Davlatning obligasion zayomlari: turlari, emissiya tartibi va ularni joylashtirish. Davlat qarzlarini ularni boshqarish usullari. Pandimiya sharoitda davlat qarzlarini boshqarishdagi muammolar. Xalqaro kreditdan foydalanish imkoniyatlari. Davlat byudjetining iqtisodiy siyosat vositasi sifatida.

Davlat qarzlarini boshqarishda qarz strategiyasi, byudjet- iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatish quroli sifatida va uning davlat ijtimoiy siyosatni amalga oshrishdagi roli. Mamlakat iqtisodiyotini moliyaviy sog‘lomlashtirishda davlat kreditining ahamiyati.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modulning nazariy materialini o‘zlashtirishda quyidagi:

→ o‘quv ishini tashkillashtirishning interfaol shakllaridan: binar-ma’ruza, provakasion-ma’ruza, savol-javobli ma’ruza, suhbat-ma’ruzalar orqali tashkillashtirish nazarda tutilgan.

→ o‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari sifatida quyidagilardan foydalanish nazarda tutilgan:

- ma’ruza mashg‘ulotlarida ommaviy, juftlik, individul;
- amaliy mashg‘ulotlarda guruhli, jamoaviy, juftlik, individual.

KO‘CHMA MASHG‘ULOT

Modul yuzasidan o‘quv rejada “Byudjet taqchilligi uni moliyalashtirish manbalari” va “O‘zbekistonda davlat ichki va tashqi qarzlarining vujudga kelish omillari, qoplash manbalari va ularni boshqarish O‘zbekistonda davlat ichki va tashqi qarzlarining vujudga kelish omillari, qoplash manbalari va ularni boshqarish” mavzularidan 4-soat ko‘chma mashg‘ulot rejalashtirilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagи “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish

tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagи 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori

III. Maxsus adabiyotlar

35. Abdraxmanova G.I., Vishnevskiy K.O., Goxberg L.M. i dr.; Sifrovaya ekonomika: 2019: kratkiy statisticheskiy sbornik / Nas. issled. un-t «Vlysshaya shkola ekonomiki». – M.: NIU VSHE, 2019. – 96 s.

36. Ataniyazov J., Almardanov E., Abdullayev A. Upravleniye gosudarstvennym dolgom. Uchebnoye posobiye. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-216 b.

37. Belogurov A.Yu. Modernizasiya prosessa podgotovki pedagoga v kontekste innovasionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

38. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

39. Gulyamov S.S., Ayupov R.H., Abdullayev O.M., Baltabayeva G.R.. Raqamlı iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. T.: TMI, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019, 447 bet.

40. Ibraymov A.Ye. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/tuzuvchi. A.Ye. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

41. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O‘quv jarayonida innovation ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiy», 2014. 60 b.

42. Malikov.T.S. Budget soliq siyosati. O`quv qo`llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-652 b.

43. Mamatov B., Xamdamov Sh., Tursunov J. Davlat maqsadli va buydjetdan tashqari jamgarmalar. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-348 b.

44. Malikov T., Olimjonov O. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-969 b.

45. Jiyanova N. Upravleniye gosudarstvennyimi finansami. Uchebnik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-446 s.

46. Shernaev A., Kamolov O. Davlat qarzlarini boshqarish. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-314 b.

47. Kamolov O.S. “Davlat qarzlarini boshqarish” O‘quv qo‘llanma / Toshkent Moliya Instituti. – Toshkent: “Noshir”, 2018. -312-b.

48. Muslimov N.A va boshqalar. Innovasion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
49. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya / N. Yu. Ignatova; M-vo obrazovaniya i nauki RF; – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf
50. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko‘magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
51. Sovremennyye obrazovatelnyye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. Kniga 16 / O.K. Asekretov, B.A. Borisov, N.Yu. Bu-gakova i dr. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
52. Usmonov B.Sh., Habibullayev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.
53. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
54. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, 204.
55. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.

IV. Internet saytlari

56. www.press-service.uz - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot markazi sayti.
57. www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Hokimiyati portalı
58. www.lugat.uz, www.glossaiy.uz - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati, 2004, UNDP DDI: Programme.
59. www.uz - O‘zbek internet resurslarining katalogi:
60. Infocom.uz elektron jurnali: www.infocom.uz
61. <http://www.bank.uz/uz/publisIVdoc/>
62. www.press-uz.info
63. www.zyonet.uz
64. www.edu.uz
65. www.mf.uz
66. www.vestifinance.ru
67. www.imf.org
68. www.worldbank.org

II. “DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISH” MODULINI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Mamlakatimiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni modernizasiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlarining keng ko‘lamda amalga oshirilishi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ushbu modul turli mulkchilikka asoslangan tashkilotlarning innovation faoliyatini, ularning bozor sharoitidagi harakatini, cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish yo‘llarini chuqur o‘rganishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim sifati va usuliga qarab bilim hosil bo‘ladi. Bu pedagogning mahoratinigina emas, balki tinglovchining istak-xohishi, qobiliyati va bilim darajasini ham belgilaydi. Ta’lim uzoq davom etadigan jarayondir. Bilim esa ta’limning uzluksizligi vositasida beriladigan mavhum tushunchaga ega bo‘lgan hodisadir. Bilim xususiylikka ega bo‘lsa, ta’lim umumiylikka egadir. Ta’lim barcha uchun bir xilda davom etadigan jarayon. Bilim ob’yekтив borliqdagi voqeа-hodisalarning in’ikosi natijasida inson miyasidagi mushohadalar va tasavvurlar natijasida hosil bo‘ladigan tushunchalar yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’limdagi sifat uni berishda ishtirok etadigan kishilar sifati bilan belgilansa, bilim individuallikka ega bo‘ladi. Ta’limni amalga oshiradigan yoki dars beradigan kishilarning saviyasi turlicha bo‘lishi mumkin. Lekin guruhdagi talabalarga beriladigan ta’lim bir xildir. O‘qituvchi bilim emas, balki ta’lim beradi. Talaba esa ana shu ta’lim jarayonida bilimga ega bo‘ladi. Buning uchun u mustaqil o‘qiydi, tayyorlanadi, mushohada qiladi, tasavvurlarga ega bo‘ladi, eshitganlari va o‘qitganlarini sintez qiladi. Natijada bilimga ega bo‘ladi.

O‘quv jarayoni bilan bog‘liq ta’lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma’ruzalar o‘qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo‘llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o‘ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo‘yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishslash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta’lim ustivorligini ta’minlaydi.

Shulardan kelib chiqqan holda “Davlat qarzlarini boshqarish” modulining ta’lim texnologiyalarini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondashuvlarga e’tibor berish kerak.

Ta’limning shaxsga yo‘naltirilganligi. O‘z mohiyatiga ko‘ra bu yo‘nalish ta’lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning to‘laqonli rivojlanishini ko‘zda tutadi. Bu esa Davlat ta’lim standarti talablariga rioya qilgan holda tinglovchining

intellektual rivojlanishi darajasiga yo‘naltirilib qolmay, uningning ruhiy-kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni ham anglatadi.

- **Tizimli yondashuv.** Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam qilishi zarur: jarayonning mantiqiyligi, undagi qismlarning o‘zaro aloqadorligi, yaxlitligi.
- **Amaliy yondashuv.** Shaxsda ish yuritish xususiyatlarini shakllantirishga ta’lim jarayonini yo‘naltirish; tinglovchilar faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha layoqati va imkoniyatlarini, sinchkovligi va tashabbuskorligini ishga solishni shart qilib qo‘yadi.
- **Dialogik yondashuv.** Ta’lim jarayonidagi ishtirokchi sub’yektlarning psixologik birligi va o‘zaro hamkorligini yaratish zaruratini belgilaydi. Natijada esa, shaxsning ijodiy faolligi va taqdimot kuchayadi.
- **Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish.** Demokratiya, tenglik, sub’yektlar munosabatida pedagog va tinglovchining tengligi, maqsadini va faoliyat mazmunini birgalikda aniqlashni ko‘zda tutadi.
- **Muammoli yondashuv.** Ta’lim jarayonini muammoli holatlar orqali namoyish qilish asosida tinglovchi bilan birgalikdagi hamkorlikni faollashtirish usullaridan biridir. Bu jarayonda ilmiy bilishning ob’yektiv ziddiyatlarini aniqlash va ularni hal qilishning dialektik tafakkurni rivojlantirish va ularni amaliy faoliyatda ijodiy ravishda qo‘llash ta’milanadi.
- **Axborot berishning eng yangi vosita va usullaridan foydalanish,** ya’ni o‘quv jarayoniga kompyuter va axborot texnologiyalarini jalg qilish.
Yuqorida konseptual yondashuv va “Davlat qarzlarini boshqarish” modulining tarkibi, mazmuni, o‘quv axborot hajmidan kelib chiqqan holda o‘qitishning quyidagi usul va vositalari tanlab olindi.
 - **O‘qitish usullari va texnikasi:** muloqot, keys stadi, muammoli usul, o‘rgatuvchi o‘yinlar, “aqliy hujum”, insert, “Birgalikda o‘rganamiz”, pinbord, ma’ruza (kirish ma’ruzasi, vizual ma’ruza, tematik, ma’ruza-konferensiya, aniq holatlarni yechish, avvaldan rejalashtirilgan xatoli, sharhlovchi, yakuniy).
 - **O‘qitishni tashkil qilish shakllari:** frontal, kollektiv, guruhiy, dialog, polilog va o‘zaro hamkorlikka asoslangan.
 - **O‘qitish vositalari:** odadagi o‘qitish vositalari (garslik, ma’ruza matni, tayanch konspekti, kodoskop)dan tashqari grafik organayzerlar, kompyuter va axborot texnologiyalari.
 - **O‘zaro aloqa vositalari:** nazorat natijalarining tahlili asosida o‘qitishning diagnostikasi (tashxisi).
 - **Boshqarishning usuli va vositalari.** O‘quv mashg‘ulotini texnologik karta ko‘rinishida rejalashtirish o‘quv mashg‘ulotining bosqichlarini belgilab,

qo‘yilgan maqsadga erishishda pedagog va tinglovchining hamkorlikdagi faoliyatini aniqlab beradi.

1- ma’ruza mashg‘ulotida quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalilanildi:

1) Mashg‘ulotning motivasiya bosqichida: “Aqliy hujum”dan foydalilanildi.

Topshiriq mazmuni -Davlat qarzlarini boshqarishning nazariy asoslari.

Tinglovchilarning davlat qarzlarini boshqarishning nazariy asoslariga oid qanday ma’lumotlarni bilishlari va bilishni istayotgan ma’lumotlarini aniqlash maqsadida “**B /B /B**” metodidan foydalilanildi.

Topshiriq mazmuni – Davlat qarzlarini boshqarish bo‘yicha bilgan ma’lumotlarni birinchi ustunga yozib chiqish va bilishni istayotgan ma’lumotlarni ikkinchi ustunga yozib chiqish.

Bilaman	Bilishni istayman	Bilib oldim

“B /B /B”


2) Tinglovchilarning davlat qarzlarini boshqarishning nazariy asoslariga oid tayanch ma’lumotlarni aniqlash maqsadida “Tushunchalar tahlili” metodidan foydalilanildi.

“Tushunchalar”- tahlili

Tushunchalar	Sizning fikringizcha ushbu tushuncha nimani anglatadi?	Qo‘srimcha ma’lumot
Davlat qarzlarini boshqarish tushunchasi		
Davlat ichki qarzlar		
Davlat tashqi qarzlar		
Davlatning umumiyligi qarzlari		
Davlat tashqi qarzlarini boshqarish		
Davlat qarzlarini boshqarishning muhim masalalari		

3) Tinglovchilarning innovation loyihalar turiga oid tayanch ma'lumotlarni aniqlash maqsadida “*Venn diagrammasi*” metodidan foydalaniladi.

Venn diagrammasi



2-ma’ruza mashg‘ulotida quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi:

1) Mashg‘ulotning motivasiya bosqichida: “Aqliy hujum”dan foydalaniladi.

AQLIY HUJUM METODI

Aqliy hujum (breynstroming-aqllar to‘zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g‘oyasini jamoaviy yuzaga keltirishda qo‘llaniladigan metod.

Metod chegaralangan vaqt oralig‘i ichida aniq muammo (savol, masala)ni yechishning noan’anaviy yo‘llarini izlash bo‘yicha o‘quvchilarni aqliy faoliyatini yo‘naltirishga asoslangan.

O‘quv mashg‘ulotidagi aqliy hujum uchunmuammoni tanlash quyidagi tamoyillar bo‘yicha amalga oshiriladi:

- tanlangan muammo nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi hamda o‘quvchilarda faol qiziqish uyg‘otishi kerak;
- ko‘p har xil ma’nodagi yechim variantlariga ega bo‘lishi kerak.

O‘qitish texnologiyasini ishlab chiqishda aqliy hujum metodi o‘quv mashg‘ulotining bir lavhasi yoki butun mashg‘ulotni o‘tkazish asosi sifatida rejalashtirilgan bo‘lishi mumkin.

INSERT TEKNIKASI

INSERT (inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib - **INSERT** – Interaktive-interfaol Noting – belgilash System - tizim for-uchun **Effective** – samarali **Reading** – o‘qish and – va **Thinking** – fikrlash degan ma’noni anglatadi).

1) Samarali o‘qish va fikrlash uchun matnda belgililar qo‘yishning interfaol tizimi hisoblanadi.

Matnni belgilash tizimi:

- (✓) - mening bilganimni tasdiqlovchi axborot;
- (+) –men uchun yangi axborot;
- (–) - menning bilganlarimga, zid axborot;
- (?) - meni o‘ylantirib qo‘ydi. Bu bo‘yicha menga qo‘sishma axborot kerak.

PINBORD TEXNIKASI

Pinbord–(inglizchadan: *pin-* mahkamlash, *board* – yozuv taxtasi) – o‘quvchilarni tizimli va mantiqiy fikr bildirishga o‘rgatadigan metod.

Pinbord texnikasi:

1) muammoli masalalar va vaziyatlar, aqliy hujum va amaliy o‘qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) muammoni yechish variantlarini baholash hamda ular ichidan eng yaxshisini tanlash imkonini beradi;

2) aqliy hujum va amaliy o‘qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) toifali sharh o‘tkazish imkonini beradi.

Pinbord texnikasining texnologik chizmasi

KEYS-STADI METODI

KEYS – (ingl. sase – to‘plam, aniq vaziyat) – nazariy bilimlarni amaliy vazifalarni yechish jarayonida qo‘llash imkonini beruvchi *o‘qitish vositasi*.

Keysda bayon qilingan vaziyatni o‘rganib va tahlil qilib, o‘quvchilar o‘zining kelgusidagi kasbiy faoliyatida o‘xhash vaziyatlarda qo‘llashi mumkin bo‘lgan tayyor yechimni oladi.

Keysda bayon qilingan vaziyatlar (kasbiy), amaliy mashg‘ulotlarda yechiladigan vaziyatli masalalardan tubdan farq qilinadi. Agar vaziyatli masalalarda har doim shart (nima berilagan) va talab (nimani topish kerak) berilgan bo‘lsa, keysda, qoidaga ko‘ra, bunday parametrlar mavjud emas.

O‘quvchiga taqdim etilgan ixtiyoriy keysda:

- keysning belgilanishi va topshiriq/savollar aniq ifodalangan bo‘lishi kerak;
- bayon qilingan muammoli vaziyatni yechish uchun kerakli va yetarli xajmda ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak
- keysni yechish uchun *uslubiy ko‘rsatmalar* bo‘lishi kerak.

Keys-stadi (ingl.sase– to‘plam, aniq vaziyat, stadi-o‘qitish)–amaliy o‘qitish vaziyatlar metodi.

Keys-stadi - o‘qitish, axborotlar, kommunikasiya va boshqaruvning qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta’minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo‘lgan o‘qitish texnologiyasidir.

Ushbu metod o‘quvchilarni quyidagilarga undaydi:

- muammoni shakllantirishga;

- amaliy vaziyatni tahlil qilish va baholashga;
- muammo yechimini eng maqbul variantini tanlashga.

O‘quv mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasini tanlashni ikki asosiy dalil belgilaydi:

1. Keysning hajmi (qisqa, o‘rtacha miqdordagi, katta)
2. O‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli:
 - savolli (savollar keysdan keyin keltiriladi)
 - topshiriqli (topshiriq keys kirish qismining oxirida keltiriladi)

O‘QUV LOYIHA METODI

Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, ma’lum muddat ichida (bitta o‘quv mashg‘ulot doirasidan 2-3 oy muddat ichida) ta’lim oluvchi guruhli yoki yakka tartibda berilgan mavzu yuzasidan loyiha topshirig‘ini bajaradi. Uning vazifasi – muayyan foydalanuvchiga yo‘naltirilgan yangi ma’lumot olish, belgilangan muddat ichida berilgan u yoki bu muammoni ilmiy, texnikaviy yechimidan iborat.

O‘quv loyihasi tushunchasi:

- muayyan iste’molchiga mo‘ljallangan, muammolarni izlash, tadqiq qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan. Talablarining mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilish *usuli*;
- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o‘quv *vosita va qurollari*;
- rivojlantiruvchi, ta’lim-tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarни shakllantirishga qaratilgan *didaktik vosita*.

GRAFIK TASHKIL ETUVCHILAR

KLASTER (klaster-tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li- barcha tuzilmaning mohiyatini umumlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish asosida aniq biror mazmunni keltirib chiqaradi.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va keng jalg qilishda yordam beradi.

Klasterni tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnomalar

1. Katta qog‘oz varag‘i markazida kalit so‘z yoki 1-2 so‘zdan iborat mavzu nomini aylana ichiga yozing.
2. Kalit so‘z bilan birlashdigan yon tomoniga kichkina hajmdagi aylana-“yo‘ldoshcha” ichiga mavzu bilan aloqador so‘z yoki so‘z birikmasini yozing. Ularni chiziq bilan “bosh” so‘zga bog‘lang.

3. Ushbu “yo‘ldoshcha”larda “kichik yo‘ldoshlar” ham bo‘lishi mumkin, ular ichiga yana so‘z yoki iboralar yozib ajratilgan vaqt tugagunga qadar yoki g‘oyalar tugamagunga qadar davom ettiriladi.

«NIMA UCHUN?» SXYeMASI –muammoning dastlabki sababini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri bo‘lib,tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

«Nima uchun?» sxemasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnomा

O‘quv topshiriqda ko‘rsatilgan muammosababini aniqlash uchun:


- 1) Muammoni yozing va strelka chizig‘ini chiqarib «Nima uchun?» so‘rog‘ini yozing.
- 2) Savolga javob yozib nima uchun so‘rog‘ini takror yozib boravering. Bu jarayonni muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom ettiring

«BALIQ SKELETI» CHIZMASI – bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Baliq skeleti” sxemasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnomা

O‘quv topshiriqda ko‘rsatilgan muammo maydonini tavsiflash uchun:

1.«Baliq skeletini” chizing:



2. «Suyak»ning chap qismida (yoki yuqori suyakda) muammo osti muammoni yozing, o‘ng qismida (pastki suyakda) – muammo osti muammoni amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi dalillarni yozing.

«QANDAY?» IYERARXIK DIAGRAMMASI - muammo to‘g‘risida umumiy tasavvurlarni olishga, uning yechimini topish usul va vositalarini topishga imkon beruvchi mantiqiy savollar zanjiridan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

«Qanday?» diagrammasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnomा

«Qanday?» diagrammasini tuzishdan avval, siz quyidagilarni bilishingiz kerak: ko‘p hollarda Sizga muammolar hal etishda «Nima qilish kerak?» haqida o‘ylashga hojat bo‘lmaydi. Muammo yechimini topish uchun asosan «Buni qanday qilish kerak?» qabilida bo‘ladi. «Qanday?» - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

1. Doira chizing va uning ichiga yechilishi lozim bo‘lgan muammoni yozing.
2. Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo‘ying va shu savolga javob bering. Shu tartibda savollarni ketma-ket berib boravering va javoblarni o‘ylab o‘tirmasdan, solishtirmasdan, baholamasdan, tez-tez yozishda davom eting.

Maslahat va tavsiyalar:

Yangi g‘oyalarni grafik ko‘rinishda qayd etishni o‘zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko‘rinishida, yuqorida pastga yoki chapdan o‘ngga. Eng muhimi esda tuting: nisbatan ko‘p miqdordagi foydali g‘oyalari va muammo yechimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.

Agarda siz muammoni yechimini topish uchun to‘g‘ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo‘nalishini namoyon bo‘lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan yechimini topishingizni kafolatlaydi.

«NILUFAR GULI» CHIZMASI - muammoni hal etish vositasi. O‘zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o‘z navbatida to‘qqizta kichik kvadratdan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash qo‘nikmalarini shakllantiradi.

«Nilufar guli» sxemasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnomा

O‘quv topshiriqda ko‘rsatilgan muammoni hal etish vositalarini topish uchun:

1) O‘zida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan sxemani chizing. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri o‘z navbatida to‘qqizta kichik kvadratdan iborat;

	B	
	D	
	G	

	Z	
B	Z	C
D	A	F
G	H	Y
	H	


	C	
	F	
	Y	

2) asosiy muammoni markaziy kvadratning markaziga yozing. Uni hal etish g‘oyalarini markaziy kvadrat atrofida joylashgan qolgan sakkizta kvadratlarga yozing;

3) har bir ushbu sakkizta g‘oyani markaziy kvadrat atrofida joylashgan sakkizta katta kvadrat markaziga o‘tkazing, boshqacha aytganda, nilufar gulidan uning gul bargiga o‘tkazing. Shunday qilib, ular har biri, o‘z navbatida, yana bir muammo sifatida qaraladi.

1-amaliy mashg‘ulotda quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalaniladi:

1) Tinglovchilarning innovasion boshqaruvdada tavakkal xavfi darajasini bosqichma-bosqich baholashga oid tayanch ma’lumotlarni aniqlash maqsadida “Qanday?” diagrammasi metodidan foydalaniladi.



2) Tinglovchilarning davlat qarzlarini boshqarishga oid tayanch ma’lumotlarni aniqlash maqsadida “**Tushunchalar tahlili**” metodidan foydalaniladi.

“Tushunchalar”- tahlili

Tushunchalar	Sizning fikringizcha ushbu tushuncha nimani anglatadi?	Qo’shimcha ma’lumot
<i>Yangi bilimlarni vujudga keltirishni boshqarish</i>		
<i>Yangi iqtisodiy bilimlarni yaratuvchilar salohiyatini boshqarish</i>		
<i>Yangiliklarni kiritishni ijtimoiy va psixologik tomonlarini boshqarish</i>		
<i>Innovasiyani boshqarish</i>		

2-amaliy mashg‘ulotda quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalilaniladi:

Dars shakli baxs-munozara o‘tkazilib, ishning maqsadi tinglovchilarda Davlat qarzlarini boshqarishning funksiyalari va usullari haqida tushuncha hosil qilish, iqtisodiyot va uning shakllanishi hamda amal qilishi xususiyatlarini muhokama etish va ko‘nikma hosil etishdan iborat.


Mashg‘ulotning motivasiya bosqichida: “Aqliy hujum”dan foydalilaniladi.

Topshiriq mazmuni - Davlat qarzlarini boshqarishning funksiyalari va usullari.

Davlat qarzlarini boshqarish maqsadlari	Davlat qarzlarini boshqarishni tashkil etish	Motivasiyani boshqarish	Davlat qarzlarini boshqarishning o‘rni	Faoliyat natijalarini aniqlash

2) Tinglovchilarning Davlat qarzlarini boshqarish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida tahlil-munozara usulidan foydalilaniladi.

Topshiriq mazmuni – Ishlab chiqarishning texnik-tashkiliy darajasini tahlil qilish.



Tinglovchilar innovation faoliyatni nazorat qilish qilish usullari to‘g‘risidagi o‘z fiklarini bildiradilar.

3-amaliy mashg‘ulotda quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalilanildi:

1) Tinglovchilarning davlat qarzlarini boshqarish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida masalalardan foydalilanildi.

Topshiriq mazmuni –masala yechish.

Topshiriq mazmuni: Davlat qarzlarini boshqarish strategiyasini tanlash va asoslash.

“SWOT - tahlil” jadvali

S (kuchli tomoni)	W (kuchsiz tomoni)
O (imkoniyatlar)	T (tahdidlar)

4-amaliy mashg‘ulotda quyidagi interfaol o‘qitish metodlaridan foydalilanildi:

«EPS Ltd» firmasi Buyuk Britaniyada elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi nufuzli firma sifatida ma’lum. Kompaniya shiori quyidagicha: «Biz elektr energiyasini uzlusiz yetkazib bershni kafolatlaymiz. Bizning energiya uzatishimiz a’lo darajada!». Firma mijozlari: aeroportlar, kasalxonalar, telekommunikasiya sohasidagi korxonalar, non kombinatlari.

Mijozlar geografiyasi – Buyuk Britaniya, O’rta Sharq, Xitoy.

Kompyuter va boshqa asbob-uskunalar elektr energiyasi bilan uzlusiz va barqaror ta’minlashni talab qiladi. Firma mutaxassislari bundan 20 yil oldin elektr uzatish va kuchlanishdagi eng kichik tebranishlarr ham kompyuter ishiga salbiy ta’sir etishi va bunda uzatiladigan axborot buzib ko‘rsatilishi, kompyuter operasiyalari qiyinlashishini aniqlagan edilar. Firma tasarrufida bo‘lgan asbob-uskunalar o‘zgaruvchan tok tebranishlaridan ishonchli himoyani to‘liq ta’minlay oladi.

Firmaning sotuv hajmi talab yetarli darajada yuqori bo‘lganda to‘xtovsiz o‘sadi, biroq raqobat xavfi ham ortadi. Firmaning boshqaruvchi direktori ma’lumoti bo‘yicha muhandis-elektronchi bo‘lib, Marketing instituti qoshidagi kadrlar tayyorlash markazida maxsus kurs o‘tib, firma pozisiyalari mustahkam ekanligiga qaramay, uning faoliyatini marketing konsepsiyasiga yo‘naltirish zarurligini anglab yetdi. U marketing rejalashtirish tizimini rivojlantirish vaqtini keldi deb hisoblaydi, biroq marketing faoliyati borasida yetarlicha tajribaga ega bo‘lmagani holda aniq nimalar qilish kerakligini bilmaydi. U kompaniya falsafasini quyidagicha ifodalaydi: «Tovarning eng oliv sifati plyus ajoiyb injiniring va texnik ekspertiza».

Savollar:

1. Boshqaruvchi direktorga kompaniyaning asosiy marketing maqsadlarini ifodalashga yordam bering.
 2. Kompaniyaning asosiy vazifalarini ajratib ko‘rsating.
 3. Sizningcha, bu vazifalarni bajarish uchun marketing faoliyatining qaysi turlari zarur?
 4. Kompaniya faoliyatida marketing konsepsiyasiga o‘tish natijasida qanday foyda olish mumkin?
- Javoblar variantini grafik organayzerlar ko‘rinishida taqdim eting.

Testlar

1. Davlat byudjeti mamlakat moliya tizimining qaysi bo‘g‘iniga mansub?

- A) *Davlat moliyasi;
- B) Mamlakatnining kredit tizimi;
- C) Xo‘jalik sb’yektlari moliyasi;
- D) Moliyaiv yvositachi muassasalar moliyasi.

2.O‘tazish vaqtiga qarab byudjet nazorati qanday turlarga ajratiladi?

- A) Dastlabki va so‘nggi nazorat;
- B) Joriy va rejalashtirilgan nazorat;
- C) Joriy, rejalashtirilgan va auditorlik nazorati;
- D) *Dastlabki, joriy va so‘nggi nazorat.

3.Byudjet nazoratining asosiy usullarini to‘liq va to‘g‘ri ko‘rsatilganini aniqlang.

- A) Soliq nazorati, bojxona nazorati, moliyaviy nazorat;
- B)*Xujjatli tekshirish, kameral tekshirish, kuzatish, iqtisodiy tahlil, taftish;
- C) Hujjatli tekshirish, kuzatish, kameral tekshirish, auditorlik nazorati;
- D) kuzatish, iqtisodiy tahlil va moliyaviy tahlil.

4. Xarajatlar sekvestri nima?

- A) Himoyalangan xarajatlarni qisqartirish bilan bog‘liq jarayon;
- B)*Himoyalangan xarajatlarni byudjet ijrosining keyingi choraklarida ketma-ket qisqartirish jarayoni;
- C) Byudjet daromadlarini restrukturizasiya qilish;
- D) Byudjetning egri soliqlarni byudjet daromadlarini urtasida uzaro taksimlanishini bo‘yicha urnatiladigan meyirlarni nisbatlarini o‘zgartirish.

5. Davlat krediti munosabatlarini tashkil qilishning manbalari nuktai nazaridan kanday turlarga tasniflanadi?

- A) *Ichki va tashki davlat kreditlari;
- B) Bank krediti, tijorat krediti va davlat krediti;
- C) Byudjetlararo kredit munosabatlari, mahalliy kredit munosabatlari;
- D) Markaziy bank krediti, tijorat banklari kredit munosabatlari.

6.Yer solig‘i byudjet tizimining qaysi bo‘g‘in byudjetlari daromad manbai hisoblanadi?

- A) Respublika byudjeti daromadi;
- B)*Mahalliy byudjetlar daromadi;
- C) Respublika va mahalliy byudjetlar daromadlari;
- D) Maqsadli jamg‘armalar daromad manbai;

7.Davlat byudjeti cassali ijrosini amalga oshiruvchi vakolatli organning qaysi biri to‘g‘ri?

- A) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq kumitasi;
- B) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;
- C)*O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g‘aznachiligi;
- D) O‘zbekiston Respublikasi Bojxona Kumitasi;
- E) O‘zbekiston Ryespublikasi Vazirlar Maxkamasi.

8. Xarajatlar smetasi nima?

- A) *Notijorat asosida faoliyat yurituvchi byudjet muassasalarning moliyaviy rejasi;
- B) Tijorat asosida faoliyat yurituvchi korxona va tashkilotlarning yig‘ma moliyaviy rejasi;
- C) Sanoat korxonalari moliyaviy rejasi;
- D) Moliyaviy institutlar moliyaviy rejasi.

9. Smetali moliyalashtirish nima?

- A) *Tasdiqlangan smetaga muvofiq muassasa va tashkilotlar xarajatlarini moliyaviy ta’minalash usuli;
- B) Tijorat korxonalarida asosiy ishlab chikarish fondlarini moliyalashtirish usuli;

C)Tijorat asosida faoliyat yurituvchi korxonalar aylanma ishlab chiqarish fondlarini moliyalashtirish usuli;

D) Inovasion faoliyatni moliyalashtirish usuli.

10. Byudjetnama O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilningqaysi muddatidan kechiktirilmay O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga kiritiladi?

A) *o‘n beshinchi oktyabridan;

B)o‘n beshinchi dekabridan;

C)o‘n oltinchi noyabridan;

D) o‘n oltinchi oktyabridan.

5-MAVZU. DAVLAT MOLIYASI TIZIMIDA DAVLAT KREDITI VA DAVLAT QARZLARINI SHAKLLANTIRISH VA BOSHQARISH

Topshiriqlar

1-masala.Quyidagi yo‘llarning qaysi biridan bozorni o‘rganishda foydalangan bo‘lardingiz?

- a)xaridorlarning sizning tovarlaringiz haqidagi fikrini bilish
- b)sizning xotiningiz yoki eringizni fikrini bilish
- c)biznes-kataloglarni ko‘zdan kechirish
- d)sizning shaxsiy buyurtma daftarchangizga ishonib
- e)sizning vakilingizni fikrini bilish

2-masala.Tovarlaringizni reklama qilish va sotishda siz e’tiborni qozonishingiz uchun kerak bo‘lgan 10 ta omillarni keltiring.

3-masala.Quyidagi omillardan qaysi biri tovarning muvofaqiyatga erishishi uchun kattaroq rol o‘ynaydi, nima sababdan va asoslab bering.

- a)sotuvchining epchilligi
- b)marketingning tashabbuskorligi
- c)aktiv va ta'sirli reklama
- d)to‘g‘ri segmentlanganlik
- e)keltirilganlardan hammasi to‘g‘ri
- f)birortasi ham to‘gri emas

4-masala. Qanday cheklovchi omillar quyidagi tovarlarga bo‘lgan talabni qisqartiradi?

- a)sigaretalar
- b)bug‘doy uni
- c)mineral suv
- d)kanselyariya tovalari
- e)uyali telefon apparatlari

6-masala. A markaning egallagan o‘rni 30 % va eksklyuzivlik darajasi 60 % ni tashkil etadi. Bu marka xaridorlarining talabi o‘rtacha tovar miqdoriga teng bo‘lsa, A marka bilan raqobatdosh tovarlarning xaridorlari talabini aniqlang.

Agar eksklyuzivlik darajasi 50% dan past bo‘lsa bozordagi o‘rni qanday bo‘ladi.

Mahsulot narxi 1-chorakda 2000 so‘m, 2-chorak 2500 so‘m, 3-chorak 2700 so‘m, 4-chorak 3400 so‘m bo‘lsa, bir yil mobaynida sotilgan tovar miqdorini aniqlang.

6-masala. Agar ekspertlar tovarlarga bo‘lgan talabni o‘sishiga ishonchi komil bo‘lib, uning strukturasi o‘zgarmay qolsa, uholda qaysi holatni tanlash kerak? Nima uchun?

Agar tavakkalchilik bo‘lsa (yekspertlar ko‘pincha 1-holat - 40%; 2-ho-

lat-35%, 3-holat -25% larni haqiqatga yaqinroq deb hisoblashadi) bu holda qaysi strategiyani optimal ded hisoblash mumkin? Aytaylik tovarlarning solish hajmi yaxshi natija bermasin. Siz qaysi strategiyani taklif qilgan bo‘lardingiz?

Keys stadi

Vaziyatli topshiriq - 1

Sotuv tizimini tashkil qilish

Arzon oyoq kiyimi ishlab chiqaruvchi amerika kompaniyasi Hindiston bozoriga chiqish imkoniyatini aniqlash haqida qaror qabul qildi. Kabinet tadqiqotlari natijalariga ko‘ra aniqlandiki, Hindistonda oyoqi kiyimi chakana savdosi asosan mustaqil savdogarlar qo‘lida bo‘lib, shaharlarda chakana savdoning 60% va qishloq joylarda – 90%ga yaqini ularning qo‘lida ekan. Shaharlar oyoq kiyimi savdosining 40%ga yaqini turli kompaniyalarning magazinlari orqali amalga oshiriladi. Qishloq joylarda sotuv hajmi aholining kambag‘alligi sababli sezilarli darajada past. Hindiston oyoq kiyimlari bozorida raqobat asosan milliy firmalar o‘rtasida kuzatiladi, bunda ular yuqori sifatli oyoq kiyimini faqat shahar mintaqalariga yetkazib beradi. Xorijiy firmalarning ushbu bozordagi roli unchalik sezilarli emas, sifat bo‘yicha amerika kompaniyasining oyoq kiyimlari bu yerdagi ko‘pchilik firmalar mahsulotidan ancha yuqori turadi.

Transport vositasida tashish imkoniyatlarini o‘rganar ekan, marketing xizmati shunday xulosaga keldiki, havo transporti orqali yuk tashish samoletni ijara olish qimmat ekanligi tufayli oyoq kiyimi narxining qimmatlashib ketishiga olib keldi, shu sababdan mahsulotni dengiz orqali — Nyu-Yorkdan Bombeygacha olib kelish maqsadga muvofiq. Hind ulgurji vositachilari aylanma kapitali cheklanganligi sababli mahsulot ulgurji savdogarning omboriga yetib kelmasidan turib tovari transport vositasida tashish uchun to‘loymi amalga oshirish va tovar inventarizasiyasini o‘tkazishga to‘g‘ri keladi. Bombey ulgurji savdogarlarining sotuv tarmog‘i Hindiston bozorining katta

qismini qamrab oladi. Sotuv boshqa ulgurji savdogarlarga ham, Hindistonning 15 ta yirik shahridagi chakana savdogarlarga ham amalga oshiriladi.

Shahar mintaqasidagi oddiy magazin katta qiziqish uyg‘otadigan joy sanaladi, chunki ko‘pchilik xaridorlarda ular yashaydigan joydan uzoqda joylashgan boshqa magazinlarga borish imkoniyati yo‘q.

Magazinlarda o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘satish kamdan-kam qo‘llanadi. Kichik magazinlarda odatda bitta xizmatchi xaridorni kutib turadi, boshqasi schet yozib beradi, uchinchi xizmatchi esa tovari o‘rab beradi. Bunda uchinchi xizmatchi doim ham bo‘lavermaydi.

Hindistonga eksport qilish uchun lisenziya olgach, kompaniya Bombeylik ulgurji savdogarlardan biri bilan muzokara olib bordi. Biroq yakuniy qaror qabul qilishga qadar kompaniya prezidenti kompaniya uchun muhim bo‘lib chiqishi mumkin bo‘lgan sotuv bilan bog‘liq barcha munozarali masalalarni batafsil o‘rganib chiqish zarur deb hisoblaydi.

Savollar:

- a) Kompaniya mutaxassislari qaysi sotuv kanallarini tanlagan va bu tanlov qanchalik to‘g‘ri bo‘lgan?
- b) Kompaniyaning bombeylik ulgurji savdogarlar bilan tashkil qilish mumkin bo‘lgan ishbilarmonlik munosabatlarini baholashda sotuv tarmog‘ining qaysi tavsiflaridan foydalanish lozim?
- v) Sotuv kanallarini boshqarishda qaysi masalalar eng murakkab bo‘lishi va ularni qanday boshqarish mumkin?

Testlar

1. Davlat maqsadli jamg‘armalari-

- A) Davlat pul mablag‘larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori

nazarda tutiladi;

- B)*Davlat byudjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg‘armalar bo‘lib, ularning har biri uchun mablag‘lar manbalari, har bir manbadan mablag‘ tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag‘lardan foydalanilishi mumkin bo‘lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi;
- C)Davlat byudjetining umum davlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi;
- D) Davlat byudjetining Qoraqalpog‘iston Respublikasi pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, byudjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

2. O‘zbekiston Respublikasida Pensiya jamg‘armasi daromadini shakllantirishda qaysi daromad manbai asosiy salmoqqa ega?

- A) *Yagona ijtimoiy to‘lovdan ajratmalar
- B)Fuqarolarning majburiy sug‘urta ajratmalari
- C)Tovarlar realizasiyasi xajmidan ajratmalar
- D) Boshqa daromadlar

3. O‘zbekiston Respublikasida Pensiya jamg‘armasi xarajatlarida qaysi turkum xarajatlar asosiy salmoqni tashkil etadi?

- A) *Ishlamaydigan pensionerlarga pensiyalar
- B) Ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar
- C) Dafn ma’rosimlari uchun nafaqalar va boshqa to‘lovlar
- D) Boshqa xarajatlar

4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasining daromadlarida qaysi daromad manbalari asosiy salmoqa ega?

- A) *Tovarlar realizasiyasidan majburiy ajratmalar
- B) Avtoransport vositalarini sotib olish, vaqtinchalik olib kirish bo‘yicha yig‘im(IIV organlarida registrasiya jarayonida)
- C) Avtomobil vositalarini O‘zR hudud orqali olib o‘tish va tranzit uchun yig‘im
- D) Halqaro moliyaviy institutlar zayomlari

5. Respublika byudjeti-

- E) Davlat pul mablag‘larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi;
- F) Davlat byudjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg‘armalar bo‘lib, ularning har biri uchun mablag‘lar manbalari, har bir manbadan mablag‘ tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag‘lardan foydalanilishi mumkin bo‘lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi;
- G) *Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi;
- H) Davlat byudjetining Qoraqalpog‘iston Respublikasi pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, byudjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

6. Mahalliy byudjet-

- E)*Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etuvchi bir qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi;
- F) Davlat pul mablag‘larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi;
- G) Davlat byudjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg‘armalar bo‘lib, ularning har biri uchun mablag‘lar manbalari, har bir manbadan mablag‘ tushishi normalari va shartlari, shuningdek shu mablag‘lardan foydalanilishi mumkin bo‘lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi;
- H) Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

7. Davlat byudjeti xarajatlari tarqibida qaysi arajatlar asosiy salmoqqa ega?

- E)*Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvatlash xarajatlari
- F) Iqtisodiyotga xarajatlar
- G) Markazlashgan investisiyalarni moliyalashtirish
- H) Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari xarajatlari

8. Davlat tashqi qarzi-

- E)*Davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan

- O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi;
- F) Aktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarini) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatları vujudga kelishi;
- G) Aktivlarni xorij manbalaridan (chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarini) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatları yuzaga kelishi;
- H) Davlat tomonidan ichki mablag‘ni va xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi.

9. Davlat tomonidan ichki mablag‘ni jalb qilish-

- E) Davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi;
- F)* Aktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarini) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatları vujudga kelishi;
- G) Aktivlarni xorij manbalaridan (chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarini) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatları yuzaga kelishi;
- H) Davlat tomonidan ichki mablag‘ni va xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi.

9. Davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish-

- E) Davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi;
- F) Aktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarini) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatları vujudga kelishi;
- G) *Aktivlarni xorij manbalaridan (chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarini) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatları yuzaga kelishi;
- H) Davlat tomonidan ichki mablag‘ni va xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi.

10. Davlat qarzi-

- E) Davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi;
- F) Aktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarini) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatları vujudga kelishi;
- G) Aktivlarni xorij manbalaridan (chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarini) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatları yuzaga kelishi;

H) *Davlat tomonidan ichki mablag‘ni va xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi.

V. BITIRUV ISHLARI UCHUN MAVZULAR

1. 2022-2026 yillarga strategiyada belgilangan ustuvor vazifalarni bajarish bilan bog‘liq islohotlar sharoitida davlat moliyasining ahamiyati va zaruriyi.(moliyaviy siyosat, byudjet-soliq siyosati, pul-kredit siyosati).
2. Davlat ichki qarzlarining mohiyati, tarkibi va omillari. (byudjetni rejalashtirish, byudjet nazorati).
3. Davlat byudjetining mohiyati va ahamiyati (markazlashtirilgan pul fondlari, byudjet munosabatlari, byudjet xarajatlari).
4. Davlat byudjetining xarajatlari va uning asosiy yo‘nalishlari (ijtimoiy madaniy tadbir xarajatlari, boshqaruv xarajatlari)
5. Byudjet taqchilligi va uni moliyalashtirish (taqchillik, profisit, obligasion zayomlar).
6. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat dasturidan o‘rin olgan ijtimoiy-iqtisodiy masalalar. (moliyaviy siyosat, byudjet-soliq siyosati, pul-kredit siyosati).
7. Davlat byudjeti uchun qanday xarakterli xususiyatlar xos (markazlashtirilgan pul fondi, imperativ pul munosabatlari).
8. Davlatning moliya tizimi va uning bo‘g‘inlari (davlat moliyasi, moliyaviy vositachi muassasalar, moliya bozori).
9. Davlat qarzlari va uni boshqarish (davlat qarzlari, prolongasiya, zayemlar konversiyasi).
10. Iqtisodiy mazmuniga ko‘ra davlat byudjetining xarajatlarining turkumlanishi (kapital xarajatlari, joriy xarajatlar).
11. Davlat ichki qarzlarini boshqarish yuzasidan faoliyatning asosiy yo‘nalishlari. (moliyaviy rejalashtirish, davlat moliyaviy nazorati, byudjet ijrosi).
12. Byudjet taqchilligi va uni boshqarish (moliyalashtirish manbalari, operasion taqchillik, avtomatik stabilizatorlar).
13. Davlat byudjetining iqtisodiyotni qo‘llab-quvvalash xarajatlari (iqtisodiyot xarajatlari, obodonlashtirish xarajatlari, qishloq xo‘jaligi)

14. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi (byudjet, Respublika byudjeti, mahalliy byudjetlar).

15. Davlat ichki qarzlarini boshqarish yuzasidan faoliyatning asosiy yo‘nalishlari. (moliyaviy rejalashtirish, davlat moliyaviy nazorati, byudjet ijrosi).

VI. KEYSALAR BANKI

1-Keys.

DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida Davlat qarzlarini boshqarish faoliyat yuritishlarini mablag‘ bilan ta’minlash iqtisodiy muammolardan biri bo‘lib, katta tavakkalchilikni talab etadi. Olingan mablag‘larni kaytarish, qoplash muddati kanchalik uzoq bo‘lsa, bu xavf darajasi ham shunchalik oshib boradi. Chunki, bu muddat ichida bozor kon'yunkturasi ham, narx-navolar ham, ish haki to‘lovlari zimdan oshib boradi. Shuning uchun, iqtisodiyot barkaror bo‘lmagan sharoitlarda (ayniksa bu xolat nafakat ayrim tovar bozori, balki butun mamlakat uchun xos bo‘lsa) harajatlar tezrok koplanadigan samarali loyihalarga mablag‘ sarflash maqsadga muvofiqdir. Bunday yondoshish ilmiy-texnika taraqqiyotining sur’ati eng yuqori bo‘lgan va yangi texnologiya yoki mahsulotlarning kirib kelishi oldingi investisiyalarni tezda kadrsizlantirib yuborishi mumkin bo‘lgan tarmoqlar uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, pulni oluvchi unchalik obruga ega bo‘lmasa va mablag‘ egasi uzoq muddatga unga pulni ishonishni xoxlamasa ham mablag‘ning o‘zini qoplash muddatiga qarab ish kuriladi. Shu sababli, taklif etilayotgan keys dolzarb deb hisoblanadi.

Keysning maqsadi - Davlat qarzlarini boshqarish samaradorligini tahlil etish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish, asoslangan qarorni qabul qilishga o‘rgatish.

Taklif etilgan keys quyidagi natijalarga ega bo‘lishga imkoniyat beradi:

- Tashkilot faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi;
- Tahlil natijalarni umumlashtirish qobiliyatiga ega bo‘ladi;
- Davlat qarzlarini boshqarish samaradorligini baholash ko‘nikmasini rivojlantiradi;
- Mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallaydi.

Marketing vaziyati

Davlatning ixtiyorida o‘zlashtirish uchun 120 mln dollar resurslari va tayyor mahsulotlar mavjud. Mazkur resurslardan foydalanish natijasida davlat 140 mln dollar qarz olishni ko‘zda tutmoqda. Shu asnoda olingan kreditlarni 4 yildan kechiktirmasdan qaytarish rejalashtirilgan. Loyiha bo‘yicha harajatlar hajmi qancha dollarni tashkil etadi. Xo‘s, ushbu loyiha talabni qondira oladimi va samaralimi?

Topshiriq:

Davlat qarzlarini boshqarish samaradorligini baholash zarur.

II. TINGLOVCHILAR UCHUN USLUBIY KO‘RSATMALAR

Muammo

Davlat qarzlarini boshqarish samaradorligini baholash.

Vazifalar:

1. Davlat qarzlarini aniqlang.
1. Qarzlarni qoplash muddatini va ushbu muddat davomida pul qiymatini o‘zgarishini aniqlang.
3. Davlat qarzlarining foydalilik koeffisiyentini aniqlang va olingan natija bo‘yicha xulosa qiling.

Nazorat savollari:

1. Davlat tashqi qarzlarining mohiyati, omillari va shakllari.
2. Davlat tashqi qarzlarini moliyalashtirish manbalarini va ularni mukammallashtirish.
3. Davlat tashqi qarzlarini samarali boshqarish.
4. Davlat tashqi qarzlarini qoplash manbalariga umumiy tavsif.
5. Davlat byudjeti taqchilligini qoplashning inflyasion va noinflyasion manbalarining tarkibi.
6. Davlat byudjeti daromadlarini prognoz qilishning xususiyatlari.

7. Davlat ichki qarzlarining mohiyati, tarkibi va omillari.
8. Davlat ichki qarzlarini boshqarish yuzasidan faoliyatning asosiy yo‘nalishlari.
9. Davlatning moliya siyosatida ichki qarzlarni boshqarish tadbirlarining ahamiyati va vazifalari.
10. Davlat byudjetining soliqli va soliqsiz daromadlari.
11. Davlat byudjeti daromadlarini prognoz qilishning xususiyatlari va uning makroiqtisodiy holatni barqarorlashtirishdagi ahamiyati.
12. Davlat qarzlarini kamaytirish muammolari va yechimlari.

VII. GLOSSARIY

Atamaning o‘zbek tilida nomlanishi	Atamaning ma’nosi
Davlat qarzi	davlat tomonidan ichki mablag‘ni va xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi..
Davlat ichki qarzlari	davlat tomonidan ichki mablag‘ni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi
Davlat tashqi qarzi	davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi
Davlat byudjeti	davlat pul mablag‘larining (shu jumladan davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘larining) markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.
Dividend	aksiyalar bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassislari o‘rtasida (ishtirokchilar, a’zolari o‘rtasida ularning ulushlari, paylari, hissalari bo‘yicha) taqsimlanadigan sof foydaning va (yoki) o‘tgan yillardagi taqsimlanmagan foydaning bir qismi; yuridik shaxs tugatilganda mol-mulkni taqsimlashdan olingan, shuningdek muassis (ishtirokchi, a’zo) tomonidan yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini (payini, hissasini) olgandagi daromadlar, bundan muassis (ishtirokchi, a’zo) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida kiritgan mol-mulkning qiymati chegiriladi.
Davlat tomonidan xorijdan mablag‘ jalb qilish	aktivlarni xorij manbalaridan (chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarini) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishi.

Moliya yili	birinchi yanvardan o‘ttiz birinchi dekabr kuni oxirigacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oluvchi davr;
Respublika byudjeti	Davlat byudjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi
Soliq qarzi	soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarz summasi, shu jumladan ushbu Kodeksda belgilangan muddatida to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalar
Sof foyda	soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda
Bozorning maqsadli segmentlarini tanlash	o‘z tovarlarini olib chiqish uchun bir yoki bir necha bozor segmentlarini baholash va tanlash.
Bozorning muhofazasi	milliy bozorning yoki ayrim tovarlar bozorining, davlatning eksport-importni tartibga soluvchi tadbirlari vositasida himoya qilinishi.
Vaziyatli tahlil	muvoffaqiyatlar va muvaffaqiyatsizliklarni hisobga olgan holdagi oldingi faoliyatini o‘rganish: ishlab chiqarish va bozordagi vaziyat o‘zgarish sabablarini aniqlash; xodimlar ishi samaradorligini baholash, ish ko’rsatkichlariga tashqi muhit ta’sirini hisobga olish; xozirgi kundagi vaziyat ta’sirini aniqlash va kelajak prochnozi (bashorati).
Davlat tomonidan ichki mablag‘ni jalb qilish	aktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini (qarzlarini) to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatları vujudga kelishi.
Byudjetdan mablag‘ oluvchilar	Davlat byudjetidan mablag‘ ajratilishi nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek kapital ta’mirlash buyurtmachilari.
Ishlab chiqarishni takomillashti-rish konsepsiysi	iste’molchilar keng tarqalgan va narxi qulay tovarlarga yaxshi munosabatda bo‘lishini, shuning uchun rahbariyat o‘z xarakatlarini ishlab chiqarishni takomillashtirishga va

	taqsimot tizimi samaradorligini ko'tarishga yo'naltirilishi kerakligi haqida tasdiq.
Byudjetdan mablag‘ ajratish	qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat byudjetidan byudjet tashkilotlariga hamda boshqa byudjet mablag‘lari oluvchilarga ajratiladigan pul mablag‘lari.
Byudjetdan ajratiladigan subsidiya	davlat tomonidan muayyan maqsadlar uchun byudjet hisobidan beriladigan pul mablag‘lari.
Iste'molchilar ma'lumotlar bazasi	individual iste'molchilar xaridlari, ularning talablari, demografik ma'lumotlar va ta'minlanadigan foyda to'g'risida kengaytirilgan ma'lumotlar bazasini yaratish. Tegishli ma'lumotlar bazalari asosida, kompaniyalar mijozlar ehtiyojlarining turli hududlarini aniqlaydilar va ularning har biri uchun savdo takliflarini tayyorlaydilar.
Byudjet transferti	byudjetdan yuridik yoki jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag‘lari.
Byudjet tashkiloti	zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z faoliyatini amalgalashirish uchun Davlat byudjetidan mablag‘ ajratish nazarda tutilgan va bu mablag‘ moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo‘mitasi, idora, davlat tashkiloti.
Byudjet taqchilligi	muayyan davrda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bo‘lgan summasi
Byudjet so‘rovi	byudjet tasnifi bo‘yicha tushumlarni shakllantirish va byudjetdan mablag‘ ajratish to‘g‘risidagi so‘rov
Byudjet subvensiyasi	qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari.
Byudjet ssudasi	yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoxud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki xorijiy davlatga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag‘.
Byudjet profisiti	muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet xarajatlaridan ortiq bo‘lgan summasi.
Byudjet jarayoni	davlat byudjetini tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish va ijro

	etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning qonun hujjatlari bilan tartibga solingan jarayoni.
Byudjet dotasiyasi	- o‘z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag‘lar yetishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o‘rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag‘lari.
Grant	davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan ro‘yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga beg‘araz asosda beriladigan mol-mulk, shuningdek chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga beg‘araz asosda beriladigan mol-mulk.

VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. “O‘zbekiston”, 2018. b 15.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 23.09.2020. www.lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Investisiyalar va investisiya faoliyati to‘g‘risida»gi (2019 yil 25 dekabr, 598-sonli) Qonun
4. O‘zbekiston Respublikasining «Raqobat to‘g‘risida»gi Qonuni. Ro‘yxatga olingan sana: 06.01.2012 y. Raqami: O‘RQ-319. <https://lex.uz/docs/1931443>
5. O‘zbekiston Respublikasining «Reklama to‘g‘risida»gi Qonuni. Ro‘yxatga olingan sana: 25.12.1998 y. Raqami: 723-I. <https://lex.uz/docs/25458>

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi PF-5953 son Farmoni. Toshkent shahri, 2020 yil 2 mart. www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagи “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи PF-4947-sonli — O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. www.lex.uz.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 yanvardagi “Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5630-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/4160392>

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 30 apreldagi «Chet el investisiyalari va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlarini takomillashtirish to‘g‘risida»gi PF 609-1 son Farmoni. <https://lex.uz/>

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 24 yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-4126-son Qarori. <https://lex.uz/docs/4178984>.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi 797-son «Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori.

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020. www.uza.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি nutqi. www.uza.uz

3. Mipziyoyev Sh.M. Qonun ustuvopligi va inson manfaatlapini ta’minalash – yupt tapaqqiyoti va xalq fapovonligining gapovi. – Toshkent: —O‘zbekiston, 2017. – 48 b

4. Mipziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mapd va oljanob xalqimiz bilan bipga qupamiz. – Toshkent: —O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

5. Mipziyoyev Sh.M. Epkin va fapovon, demokpatik O‘zbekiston davlatini bipgalikda bappo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.

IV. Darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar

1. A.Shernaev, O.Kamolov. Davlat qarzlarini boshqarish. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-314 b.

2. J.Ataniyazov, E.Almardanov, A.Abdullayev. Upravleniye gosudarstvennym dolgom. Uchebnoye posobiye. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-216 b.

3. B.Mamatov, Sh.Xamdamov, J.Tursunov. Davlat maqsadli va buydjetdan tashqari jamgarmalar. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-348 b.

4. N.Jiyanova. Upravleniye gosudarstvennymi finansami. Uchebnik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-446 s.
5. T.Malikov, O.Olimjonov. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019-969 b.

V. Internet saytlari

1. www.ziynet.uz
2. www.lex.uz
3. www.bilimdon.uz.
4. www.newhorizons.org.
5. www.ziynet.uz
6. www.biim.uz
7. www.press-servis.uz
8. www.gov.uz
9. www.google.co.uz
10. www.tfi.uz